

Barkamol avlod tarbiyalashda og`zaki nutq savodxonligini oshirish usullari

Mamlakatimizda har jihatdan yetuk, ma'naviy barkamol shaxslarni voyaga yetkazish davlatimiz siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Zero, barkamol avlod – yurt kelajagidir .

Yuksak ma'naviy – axloqiy salohiyatga ega bo'lgan barkamol shaxsni voyaga yetkazish uchun o'qituvchiga bugungi kun talabiga to'la javob berish kerak.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlagandek: “Yoshlar tarbiyasi, barkamol avlod deganda, biz O'zbekistonning buyuk kelajagini nazarda tutamiz.

Har tomonlama yetuk shaxsni g'ururga ega, yuqori bilimli, ijodkor, mustaqil fikrga ega shaxsni tarbiyalashga, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishda bugungi kun dars ssenariyini tuza olib, amalda qo'llay olish – o'qituvchi oldiga qo'ygan asosiy maqsadlardan biridir.

Inson tafakkuri qanchalik mustaqil bo'lsa, u tashabbuskor bo'ladi, uning fikrlashi qancha erkin bo'lsa, shuncha izlanuvchan, ijodkor bo'ladi .

Bola shaxsini rivojlantirishda undagi og`zaki nutqning ma'nodorligi, to'g'riligi hamda xilma-xilligida mustaqil fikrlashini shakllantirishda, dunyo qarashini kengaytirish hayotda o'z o'rniga ega bo'lishda og`zaki nutq savodxonligining ahamiyati beqiyos. Mukammal nutq savodxonligini shakllantirish esa ona tili va adabiyot fani oldiga qo'yilgan vazifalardan hisoblanadi va ushbu fan mutaxassislari oldiga mas'uliyatli burchlardan biri etib belgilanadi. Abu Nasr Forobiy fikricha: “O'qituvchi aql – farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay olishni uddalamog'i zarur... Shogird o'rgatiladigan bilimlarni egallashda tayyorlanishi, buning uchun o'qituvchi qanoatbaxsh, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so'zlardan foydalanishi lozim”.

Hozirgi pedagogik texnologiya bo'yicha o'quv jarayonida, o'quvchi o'qitilmaydi – uni mustaqil mutolaa qilishga o'rgatiladi, o'quvchiga bilimlar tayyor holda berilmaydi, unga bilimlarni manfaatlaridan mustaqil ola bilishga, fikrlay olish, mustaqil pozitsiyada tura olishga o'rgatiladi. Barcha o'quvchilarni o'z qobiliyatlari ehtiyojlari darajasida albatta o'zlashtirib olishlari kafolatlanadi. O'quvchilarining o'z fikrlarini mustaqil bayon etishi, aytmoqchi bo'lgan fikrni izohlab berishida og`zaki nutq savodxonligining ahamiyati katta.

Mustaqil fikrlash – shaxsning shunday qobiliyatiki, u tufayli odam narsa va hodisalar xususida o'z qarashlariga va nostandart yechimlarga ega bo'ladi. Masalan, ruchkani nima ekanligini va nima maqsadda undan foydalanish mumkinligini ko'pchilik biladi. Bu – yozuv quroli. Lekin mustaqil nostandart tafakkurga erk berilsa, uning ko'rsatkich sifati yoki sanoq tayoqchasi sifati kabi o'nlab vazifalarni sanab berishi mumkin . Demak, mustaqil fikr insonning , narsa va hodisa, jamiyatda berayotgan voqealarning mohiyati xususida o'z qarashlari bo'lishini taqozo etadi, uning bilish va anglash imkoniyatlarini chegarasini kengaytiradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqil fikrlash bir qarashda

shaxsning individual xususiyat bo'lsa-da, bu xususiyat jamiyatda, insonlar o'rtasidagi munosabatlar muhiti yaxshi bo'lganda rivojlanadi.

Barkamol avlodga ta'lim-tarbiya beruvchi zamonaviy o'qituvchi kelajak bunyodkori, ilg'or g'oyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va yarg'ibotchisi uning dars jarayoni, darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazish uchun izlanishi, o'quvchi bilan erkin muloqotda bo'lish usullarini ishlata olishi – o'qitishning sifatini va samaradorligini oshirishga zamin bo'la oladi. Bilimlarni amaliy harakatlar bilan mustahkamlab borilsa, masalan, yod olingan grammatik qoidani bir talay mashqlar orqali amalda qo'llay bilish kerak. Tushuntirish va tekshirish bilan bir qatorda, buyuk pedagog Immanul Kant chin daqiqalar mohiyatini ochishning o'zini ta'lim jarayonining ma'sulyati jihatida hamda o'qituvchining eng muhim vazifasi deb bilgan" ... Fikrlarni emas, fikrlashga o'rgatmoq lozim, tinglovchini, agar uning kelajakda mustaqil yura olishini xohlasalar, qo'lidan yetaklab emas, balki unga yo'l-yoriq ko'rsatmoq kerak“.

Yurtimizni har tomonlama yetuk mutaxassis qilib yetishishi va komil inson qilib tarbiyalash uchun ulaning nutqiy ko'nikma va malakalarini takomillashtirishimiz zarur. Ona tili va adabiyot fani mutaxassislari oldiga qo'yiladigan talablardan biri ham o'quvchilarda o'z fikrini savodli qilib ifodalash ko'nikmalarini, qolaversa, ularda nutq madaniyatini shakllantirishdir.

Nutq madaniyati malakasi, avvalo, adabiy til me'yorlarini egallash, undan maqsadga muvofiq ravishda foydalana olishga erishish bilan bog'liq. Ma'lumki, fikrni bayon etish va tafakkur qilishi nutq orqali amalgam oshadi.

O'quvchida tafakkur qanchalik rivojlantirilsa uning fikr bayon qilishi mahorati shuncha yuqori bo'ladi. Davrimiz hozirgi yosh avlodning fikrlash va fikr mahsulotini to'g'ri ifodalashni talab qilar ekan, o'quvchilarda bu ko'nikmani rivojlantirish uchun yangidan yangi usul va metodlardan foydalanishimiz kerak. Misollar tariqasida og'zaki savodxonlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan “debatlar”, “tushunchalar tahlili”, “yelpig'ch”, “mustaqil ishlash” kabi texnologiyalarni dars jarayonida, darsdan tashqari mashg'ulotlarda, individual ishlash jarayonida qo'llashni keltirib o'tsak.

Debatlar – bu qarama-qarshi nuqtai-nazarlarning o'zaro bahsi bo'lib, u o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga, turli masalalarni o'rganish va o'zlari haq ekanlagiga boshqalarni ishontirishga o'rgatadi. Debatlar qadimgi Gretsiyada yaratilganligi haqida nazariy ma'lumot beriladi.

Debatlar bu jamoaning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, bunda jamoaning har bir a'zosi o'zining burch va majburiyatlariga ega bo'ladi, kim g'alabaga erishganini esa debat yakunida jamoalarning argumentlari, faktlari, favqulodda savollar va ularga berilgan javoblar asosida hakamlar jamoasi yoki o'qituvchi belgilab beradi. O'quvchilar bilan debat o'tkazganda 3 ta tamoyilga amal qilish kerak.

1. Debatlar ko'p narsaga o'rgatadi (chunki debat o'tkazishdan maqsad faqat g'alaba qozonish emas, balki asosiy maqsad debatlar yordamida yangi bilimlarni egallashdir).
2. Jarayonga faol ishtirok va vijdonlilik majburiyati
3. O'zaro hurmatni saqlash.

Debatda ikkita jamoa ishtirok etadi . 1-jamoa : Tasdiqlovchi tomon sifatida. 2-jamoa: Qarama-qarshi yoki inkor etuvchi tomon sifatida. Jamoalardan so'zga **spikerlar** deyiladi. T1, T2, T3- tasdiqlovchi tomon spikerlari. Q1, Q2, Q3-qarama-qarshi tomon spikerlar. Debatlarda quyidagi mahoratlar zarur bo'ladi: Tanqidiy tafakkur, tadqiqiy malakalar, tashkiliy malakalar tinglash va yozma qayd qilish va taqdim etish kabi ko'nikmalar shakllantiriladi. O'tkaziladigan debatning mavzusi aniq, tasdiqlovchi tugallagan fikr shaklida bo'lishi kerak. Tasdiqlovchi tomoni spikerlari hakamlarni o'z nuqtai-nazrlarning to'g'riligiga ishontirishga harakat qiladi (Masalan, adabiyot – ko'ngil tarjimoni deya, fikrlar orqali mavzuni yakunlash). Inkor etuvchi tomon spikerlari tasdiqlovchi tomon nuqtai nazarining noto'g'ri ekanligiga hakamlarni ishontirishga harakat qilishi kerak (Adabiyot - yolg'on gapiradi...). Argumentlash orqali har ikkala tomon hakamlarni o'z nuqtai nazari to'g'ri ekanligiga ishontirish kerak. Argumentlar sust yoki kuchli, ishonarli bo'lishi mumkin. Shuningdek, debat ishtirokchilari o'z nutqi nazarlarini mustahkamlovchi dalillarni taqdim qilishlari lozim. Chalg'ituvchi savollar. Ko'pchilik debatlarda har bir ishtirokchiga opponent jamoa spikerining savollariga javob berish imkoniyati beriladi. Bir jamoa spikerining savoli va boshqa jamoa spikerining javobi raundi "chaparasta" savolga tutish deyiladi.

Shu o'rinda biz, misol tariqasida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi kishini chuqur o'ylashga majbur etadigan o'zbek qizlarining timsoliga aylangan, uning fojiasi hammani birdek yig'latadigan Kumushbibini mavzusida debatlar asosida bahs yuritsak:

Mavzu: "O'tkan kunlar" romanidagi Kumushbibining fojiaiy o'limiga o'zi ham sababchi bo'la oladimi?
Ha. Javob: Kumushning o'limiga o'zi ham sababchi, Dalil keltirmoq: Kumush raqibi Zaynabni qaysidir ma'noda o'ziga do'st deb biladi, uning juda yuvvosh tortib qolganiga vahshiyona ish qilishini xayoliga ham keltirmaydi.
Yo'q. Javob: Kumushning oq ko'ngilliligini suiste'mol qilgan Zaynab aybdor. Dalil keltirmoq: Uning baxtini ko'ra olmagan Zaynabni qabih ishlarga chorlovchi fikrlar chulg'ab olgan edi.
Ha. Javob: uning issiq uyini tashlab kelishi ham sabab deb o'ylayman. Dalil keltirmoq: Otabek ortidan kelishi, onasining yolvorishiga qaramasdan kundoshli uyda qolishi ham bu fojiani keltirib chiqaradi.
Yo'q. Javob: Kumush oqila qiz edi, baxti uchun turmush o'rtog'i uyida qolgan edi Dalil keltirmoq; ikki kundosh orasida arosatda qolishni o'ylagan Otabekning va yakkai yagona farzandiga ko'zi qiymayotgan onasining yalinib-

yolvorishiga qaramasdan Marg'ilonga ketmadi. Chunki u o'z aqli bilan hammaning ko'nglini olishga ,jumladan, Zaynab bilan opa-singil bo'laman deb o'lagan edi.

Ha.

Javob :Otabekning uylanishiga rozi bo'lmaslik kerak edi.

Dalil keltirmoq:ota-ona orzusi deb uylanishga rozi bo'layotgan Otabekka o'z xohish-irodasi bilan (unga ishongan holda) rozilik beradi.

Yo'q.

Javob:ota- onalar ham bu fojiaga qisman bo'lsa-da sababchi deb o'ylayman.

Dalil keltirmoq:Otabekning norizoligiga qaramasdan kelinlik orzusida yurgan ona, Lafzni yuqori darajada baholagan ota ham o'g'li baxtini o'ylamay o'zlari bilmagan holda sababchidir.

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin va bu metod asosida o'quvchini kengroq fikrlashga, mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmasini shakllantirishga, nutqiy savodxonlikni rivojlantirishga erisha olamiz.

“Yelpig'ich” texnologiyasi ham ko'p tarmoqli bo'lib, muammoli mavzularni o'rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari , foyda va zararlari belgilanadi. Bu interfaol texnologiya o'quvchilarga tanqidiy, tahliliy va aniq mantiqiy fikrlashlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda g'oyalari , fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, shuningdek uni himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Yelpig'ich” texnologiyasi umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarining ,har bir qatnashchining va umuman guruhning faol ishlashiga qaratilgan.Misol tariqasida Yana Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar”romaniga yuzlansak-da, Kumushbibini obraziga qarama – qarshi bo'lgan Zaynabbegimga bir taraflama emas, balki kengroq ta'rif berishga harakat qilib ,uni faqat salbiy obraz deyishdan bir qadar chekinsak..Bunda “yelpig'ich” texnologiyasidan foydalansak.

Fazilati	Nuqsoni	Xulosa
Tarbiyali, Iboli, Kelinlik vazifasini ado etuvchi Qaynona-qaynotasining hurmatini joyiga qo'yadigan risoladagi kelin Tabiatan og'ir,	Odamovi, “ichimdagini top” xilidan Dunyoqarashi tor, Ilmsiz Hasadgo'y, raqibidan o'ch olish uchun ojizona harakat - yolg'onchilik bilan o'zini oqlash	Zaynab aslida fojiani keltirib chiqaruvchi shaxs emas, u ham hamma qizlar qatori baxti uchun kurashgisi keladi .ammo ilmsizligi tufayli maqsadiga osongina erishmoqchi bo'ladi va yengil-yelpi

bosiq...va h.	Dunyoqarashi tor...va h.	hayot kechirayotgan opasi Xushro'ybibidan yordam so'raydi,o'ta vahshiyona fikrlar girdobidan chiqa olmaydi.Uham sevgisiga erishgisi keladi ochiq – oydin namoyon etgisi keladi,ammo raqibi kelmaguncha buni oshkor etmaydi...va h.
---------------	--------------------------	--

Bulardan tashqari, ona tili va adabiyot darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarida o'quvchilarning mustaqil ishlarini uyushtirish – materialni anglash, ongli o'zlashtirish va chuqur idrok qilish imkonini beradi.har bir sinfda o'rganilgan ko'lami, o'quvchilar bilimini hamda yoshini va ularning darslarda hosilqilgan amaliy malakalarini to'g'ri hisobga olgan holda o'tkazilgan nustaqil ishlar ko'zlangan maqsadni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Agar o'quvchilar faqat o'qituvchuning rahbarligi ostida ishlashga o'rgansalar , mustaqil fikrlash qobiliyatini so'ndirib qo'yishlari , hamma narsani tayyor holda qabul qilishga ko'nikib qolishlari mumkin,Shuning uchun darslik materiallari asosida mustaqil ish uyushtirilganda , albatta, ma'lum maqsad ko'zda tutiladi. Bu esa o'qituvchidan katta pedagogik mahorat , izlanish , o'z ishiga ijodiy yondashishni talab qiladi O'quvchilar mustaqil ishga oldindan tayyorlanishi , mustaqil ish talab etadigan bilim va ko'nikmaga ega bo'lishlari , barcha ish turlari o'qituvchining bevosita ishtirokida o'tkazilishi , bunda ayniqsa, lozim.Yana yuqoridagi mavzu ,ya'ni Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar”romanini misol qiladigan bo'lsak,bu asarni kengroq mushohada qilib o'rganish uchun mustaqil ishlar topshiriladi.Ikkala o'zbek qizining tarbiya olgan muhiti , ota-onaga bo'lgan hurmat –ehtiromi, farzandning va ota-onaning burchlari ,Vatan tinchligi uchun kurashish lavhalari , sodiqlik, shu bilan birga, fisqu-fasod dushmanlik kabi ko'rinishlar o'rganiladi va muhokamaga tayyorgatlik ko'riladi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlab o'tishimiz zarurki,nutqiy savodxonliknini oshirish usullari egallanayotgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini hosil qilish, chiqarilgan xulosalar asosida hayotga tatbiq etuvchi g'oyalar ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Zero, inson tafakkuri qanchalik mustaqil bo'lsa, u shunchalik tashshabuskor bo'ladi.Uning fikrlashi qancha erkin bo'lsa, u shuncha izlanuvchan , ijodkor bo'ladi.

Termiz tumani 9-umumiy o'rta ta'lim maktabining ona tili va adabiyot o'qituvchi Nurmuhamedova Dildora

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.I.A.Karimov. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”T;2013
- 2.I.A.Karimov .”vatan va xalq mangu qoladi”T; 2010
- 3.Saidahmedov N.”Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya”T;2003
- 4Xalq ta’limi 2014 3-son
- 5.Xalq ta’limi 2013 1-son
6. I.Kant “Сочинения в шести томах”Т ;2-m 1964
- 7.S Jumayev, S,Qodirova. ”Ona tili va adabiyot darslarini o’qitishda pedagogik texnologiyalar va ulardan foydalanish”Termiz, 2014